

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 112 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA MEHNATNI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	101
Yusupova Madina Abduvarisovna	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	



DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti

ORCID: 0009-0008-0609-0904

Email: Yakhyaevadilfuza8@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada budjetlashtirish, bir tomondan, moliyaviy rejalar va smetalarni tuzish jarayoni, ikkinchi tomondan, qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining moliyaviy asoslilikini ishlab chiqish va oshirish uchun mo'ljallangan boshqaruv texnologiyasidir. Davlat budjeti tizimining mohiyati, tuzilmasi va samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat moliyaviy boshqaruvida budjet tizimining tutgan o'rni, budjetlararo munosabatlar va budjet intizomi masalalari yoritilgan. Xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston budjet tizimining rivojlanish istiqbollari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: budjet tizimi, budjet siyosati, davlat moliyasi, budjetlararo munosabatlar, fiskal siyosat, bosh (asosiy) budjet, prognoz, standartlar, defitsit va profitsit.

Abstract. This article discusses budgeting, on the one hand, the process of drawing up financial plans and estimates, and on the other hand, a management technology designed to develop and increase the financial soundness of management decisions. The essence, structure, and ways to improve the efficiency of the state budget system are analyzed. The role of the budget system in state financial management, inter-budget relations, and budget discipline are also discussed. The prospects for the development of the budget system of Uzbekistan based on international experience are also considered.

Keywords: budget system, budget policy, public finance, inter-budget relations, fiscal policy, main (basic) budget, forecast, standards, deficit, and surplus.

Аннотация. Бюджетирование в данной статье — это, с одной стороны, процесс составления финансовых планов и смет, а с другой — управленческая технология, предназначенная для разработки и повышения финансовой обоснованности принимаемых управленческих решений. Проанализированы суть, структура и пути повышения эффективности системы Государственного бюджета. Также освещены роль бюджетной системы в государственном финансовом управлении, вопросы межбюджетных отношений и бюджетной дисциплины. На основе международного опыта рассмотрены перспективы развития бюджетной системы Узбекистана.

Ключевые слова: бюджетной системы, бюджетной политики, государственных финансов, межбюджетных отношений, фискальной политики, главного (основного) бюджета, прогноза, стандартов, дефицита и профицита.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda budjet jarayoni davlatning eng katta jarayonlaridan biri bo'lib, davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni hisoblanadi. Budjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va budjet tuzilishi, davlat hokimiyati organlarining budjet huquqlari bilan belgilanadi.

Bosh budjet xo'jalik yurituvchi subyektning barcha bo'linmalari yoki yo'nalishlari bo'yicha muvofiqlashtirilgan ish rejasi hisoblanadi. U ikki asosiy budjet shakli: tezkor (operativ) va moliyaviy budjetlarni o'z ichiga oladi.

Bosh (asosiy) budjet (yoki Davlat budjeti) — bu davlatning o'z vazifalari va funksiyalarini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan, soliqlar va boshqa daromadlar hisobiga shakllanadigan hamda xarajatlar yo'nalishini belgilovchi yillik moliyaviy rejadir. U ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning huquqiy va iqtisodiy asosi hisoblanadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot natijasi ko'rsatadiki, davlat moliya tizimi va budjetning iqtisodiy mohiyati qadim zamonlardan iqtisodchilar tomonidan o'rganila boshlangan. Masalan, G'arb olimlari tomonidan klassik iqtisodiy nazariya asoschilari U. Pitter, A. Smit, D. Rikardo, A. Tyurgo, J.B. Sey, F. Engels tomonidan davlat budjeti daromadlari shakllanishida soliq tizimining o'рни va vazifalari yoritilgan. Iqtisodiyotni budjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadagi budjetlar yig'indisini bildiradi. Demak, budjet tuzilishi mamlakatning davlat budjeti va budjet tizimini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, budjet tasnifini, budjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi budjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, budjetlar tarkibi va tuzilmasini, budjet mablag'larini shakllantirishni ifodalaydi [2].

Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot budjet ijrosining yakuni (natijalari)ni o'zida ifoda etadi. Shu munosabat bilan Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'larini oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga, ushbu vazirlik tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etishi kerak. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan hamda mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet mablag'larini oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etishlari lozim. Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi [3].

TADQIQOT METOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil va qiyosiy, kuzatuv, iqtisodiy tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, Davlat budjeti mablag'larini shakllantirishda uning ham xarajatlar qismi, ham daromadlar qismini belgilash muhim hisoblanadi. Shuningdek, soha vakillari bilan suhbatlar o'tkazish, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv hamda muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlari va xarajatlari, shuningdek, davlat qarzining yangilangan prognozlari, konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining kelib chiqish sabablari va uni moliyalashtirish manbalari, hamda uzoq muddatli fiskal maqsadlar va ularga erishish uchun soliq va budjet siyosatining o'rta muddatdagi yo'nalishlari, fiskal tavakkalchiliklar bahosi va boshqa masalalar yoritilgan.

2025–2027-yillar uchun konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari prognozlari global iqtisodiy noaniqliklar va geosiyosiy ziddiyatlar tufayli tashqi xatarlar saqlanib qolishi inobatga olinib ishlab chiqilgan.

Bunda hukumat tomonidan tashqi va ichki ta'sirlarga moslashuvchan fiskal siyosat olib borilishi maqsad qilingan bo'lib, buning natijasida 2027-yilga borib O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlari 2022-yildagi YIMning 28,8 foizidan 26,6 foizigacha, xarajatlari esa 32,3 foizidan 29,6 foizigacha pasayishi prognoz qilingan [4].

Fiskal maqsadlardan kelib chiqib, 2025–2027-yillarda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YIMga nisbatan 3 foiz, bunda Davlat budjeti va DMJ budjetlari taqchilligi 2 foiz miqdorida prognoz qilingan.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasidan kelib chiqib, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun tashqi va ichki ta'sirlarga moslashuvchan fiskal siyosat olib borish maqsad qilingan bo'lib, o'rta va uzoq muddatdagi asosiy maqsadlar sifatida quyidagilar belgilandi:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish va buning uchun YIM hajmini 160 milliard AQSH dollariga hamda aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming AQSH dollariga yetkazish;

- konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizlik target ko'rsatkichi doirasida ushlab turish uchun daromadlar bazasini mustahkamlash va budjet xarajatlari samaradorligini oshirish hamda bu orqali makroiqtisodiy barqarorlik va budjet intizomini ta'minlash;

- o'rta muddatga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish orqali davlat qarzining YIMga nisbatini 50 foizdan oshmasligini ta'minlash;

- “Yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish va daromadlarni legallashtirish orqali budjet tushumlarini ko'paytirish;



- “Natijaga yo’naltirilgan budjetlashtirish” amaliyotiga bosqichma-bosqich o’tish;
- soliq va bojxona qonunchiligini, shuningdek, iqtisodiyotning turli sohalariga ajratilayotgan subsidiyalar va berilayotgan imtiyozlarni JST talablariga uyg’unlashtirish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to’liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat budjeti xarajatlarining ijtimoiy yo’naltirilganligini saqlab qolish (1-jadval) [5].

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy va budjet ko’rsatkichlarining milliy prognozlari

№	Ko’rsatkichlar	Ijro 2024	Kutilma 2025y	Prognoz 2026 y	Prognoz 2027y
1.	YIM, trln so’m	1 412	1 630	1 866	2 125
2.	YIM o’sish sur’ati, o’tgan yilga nisbatan foizda	6	6	6,1	6,3
3.	Aholi jon boshiga YIM hajmi, AQSH doll.	3 011	3 251	3 526	3 826
4.	Inflatsiya, o’tgan yil yakuniga nisbatan, foizda	9	7	5-6	5
5.	Konsolidatsiyalashgan budjet ko’rsatkichlari, shu jumladan:	x	x	x	x
6.	daromadlar, trln so’m	377,7	431,1	496,5	565,0
7.	xarajatlar, trln so’m	434,8	480,3	551,9	629,1
8.	taqchillik, trln so’m	-57,2	-49,3	-55,5	-64,1
9.	taqchillik, YIMga nisbatan foizda	-4	-3	-3	-3

2025-yil uchun davlat budjeti daromadlari:

- makroiqtisodiy ko’rsatkichlar (YIM – 1 629,8 trln so’m, real o’sishi 6 foiz, inflatsiya darajasi 7 foiz);
- soliq-bojxona siyosatida ko’zda tutilayotgan o’zgarishlar (hisob-kitoblarga ko’ra 3,2 trln so’m qo’shimcha daromad);
- yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish doirasida soliq-bojxona ma’murchiligini yaxshilash bo’yicha tadbirlar (7 trln so’m);
- oltin va misning jahon bozoridagi narxiga nisbatan “ehtiyotkorlik” bilan yondashuv;
- energiya resurslari uchun tariflarning ko’zda tutilayotgan indeksatsiyalari asosida hisob-kitob qilindi (2-jadval).

2-jadval. 2025-yilda Davlat budjeti daromadlari, trln so’m[6]

№	Soliq turlari	Ijro 2024y	Kutilma 2025	O’sish, foizda
1.	Davlat budjeti daromadlari, jami	271,0	308,5	13,8
2.	YIMga nisbatan, foizda	19,2	18,9	
3.	Bevosita soliqlar	87,5	100,3	114,6
4.	Foyda solig’i	48,9	54,8	112,0
5.	Aylanmadan olinadigan soliq	2,9	3,5	118,3
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	35,6	42,0	117,9
7.	Bilvosita soliqlar	89,8	104,7	116,5
8.	QQS	60,7	71,8	118,3
9.	Aksiz solig’i	19,4	21,4	110,3
10.	Bojxona boji	9,8	11,5	117,6
11.	Resurs soliqlari	36,0	38,7	107,5
12.	Mol-mulk solig’i	6,8	7,7	113,4
13.	Yer solig’i	8,2	9,2	112,6
14.	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	20,0	20,7	103,1
15.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1,0	1,2	114,0
16.	Boshqa daromadlar	57,7	64,9	112,4



Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo'nalishiga ko'ra kodlashdan iborat bo'lib, bu xarajatlarni iqtisodiy yo'nalishi va to'lov turlari bo'yicha guruhlash imkonini beradi.

Iqtisodiy tasnif bo'yicha Davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismini ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari tashkil etib, ushbu xarajatlar jami Davlat budjeti xarajatlarining 2025-yilda 44,8 foizini yoki YIMga nisbatan 9,5 foizni tashkil etadi.

Jumladan, 2025-yilda ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari uchun 154,3 trln so'm ajratilishi, bu esa 2024-yilgi tasdiqlangan rejaga nisbatan 27,6 trln so'mga ko'p mablag' yo'naltirilishini anglatadi.

Shundan ijtimoiy sohaning ish haqi xarajatlari 97,2 trln so'mni (ta'lim — 62,1 trln so'm, sog'liqni saqlash — 30,1 trln so'm, madaniyat va sport — 3,9 trln so'm) tashkil etib, jami ish haqi xarajatlarining 63,2 foiziga teng. Davlat budjeti taqchilligining oshib ketishining oldini olish maqsadida 2025-yilda 4-guruh (boshqa) xarajatlar miqdori joriy yil darajasida saqlab qolinmoqda hamda faqat oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari yillik inflatsiya ko'rsatkichlari doirasida oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti bir mamlakatning moliyaviy operatsiyalarini tartibga soluvchi qonuniy hujjat hisoblanadi. Ushbu budget davlatning daromadlarini, xarajatlarini, investitsiyalarini, qarzlarini, defitsit va profitsitini belgilaydi. Davlat budjeti mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, infratuzilma va boshqa sohalarini moliyalashtirishni ta'minlaydi.

Budget jarayonini monitoring qilish va nazoratni amalga oshirishda mavjud va qo'llaniladigan uslubiyatni, jumladan, davlat moliyaviy nazoratini standartlashtirish va uni rivojlantirish muhim hamda zaruriy masalalardan biri hisoblanadi. Standartlarning maqsadi nazoratning sifati va samaradorligini, shuningdek, moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning yaxlitligi, o'zaro bog'liqligi, izchilligi, shaffofligi va xolisligini ta'minlaydigan yagona talablarni belgilashdan iborat. Mamlakatda xalqaro tan olingan nazorat standartlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vahobov A., Malikov T. Moliya: darslik. — T.: Noshir, 2011. — 712 b.
2. Mehmonov S. Budget hisobi: o'quv qo'llanma. — T.: "Fan va texnologiya", 2012. — 352 b.
3. Ostonokulov A. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti uslubiyotini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. — T.: 2021. — 64 b.
4. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 18-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RBQ-1011-son Qonuni // <https://www.lex.uz/uz/docs/-7277618>
5. Budgetnoma 2025–2027-yillar.
6. Yahyayeva D.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi: darslik. — T.: "Iqtisod-moliya", 2023. — 316 b.
7. Xolboyev D. Moliyaviy hisob: o'quv qo'llanma. — T.: "Iqtisod-moliya", 2016.
8. Qo'ziyev I. va boshqalar. Ichki audit: darslik. — T.: "Sharq", 2018.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100